


## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-oktabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4 496,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (91,1 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 22,6 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,0 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning - 24,4 % ga va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish - 17,2 % ga o‘shishi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati mahsulotlarining hajmi mlrd. so'mda va fizik hajmi indeksi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini tashkil etdi.


## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan VIII-IX-X oylar, % da



## Tumanlar miqyosida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'mda

Tumanlar nomi	2019-yil yanvar-oktabr	2020-yil yanvar-oktabr	FHI, %
G'allaorol tumani	9876,6	29365,1	256,5
Forish tumani	13747,5	28969,4	181,8
Sharof Rashidov tumani	27668,6	19892,9	62,0
Zomin tumani	24363,3	15699,2	55,6
Jizzax shahri	5275,8	6694,2	109,5
Baxmal tumani	1823,7	5129,6	242,7

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4098,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,1 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2019- yilning yanvar-oktabr oylarida - 3,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,4 % (5,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 21,6 % (23,9 %) va quyi texnologiyalisi - 61,4 % (59,6 %) ni tashkil etdi.


## Yuqori texnologiyali




## O'rta-yuqori texnologiyali



## O'rta-quyi texnologiyali



## quyi texnologiyali




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2019-yilning yanvar-oktabr oylarida - 3,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,4 % (5,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 21,6 % (23,9 %) va quyi texnologiyalisi - 61,4 % (59,6 %) ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 9,4 % (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,5 % (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,1 % (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,8 % (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,0 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 54,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 12,1 % ga o'sgan), 4136,5 ming m<sup>2</sup> sirti silliqlangan shisha (41,7 %), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	48913,0	54810,0	5897
Paxta tolasi, t.	25933,0	20645,0	- 5288
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	8151,4	6420,3	-1731,1
Paxta linti, t.	2211,0	1717,0	- 494
Trikotaj polotnolar, t.	2051	1661	-390

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 245,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,5 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan VIII-IX-X oylar, % da



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,4 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	139804,9	197693,6	57888,7
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi),	6,2	5,8	-0,4

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
---------------------	----------------------------	----------------------------	--------------

ming gkal

Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	47504,4	47984,9	480,5
---	---------	---------	-------


### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan VIII-IX-X oylar, % da



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- oktabr	2020- yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
---------------------	--------------------------------	--------------------------------	--------------

Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17498,4	27343,8	9845,4
--	---------	---------	--------



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- oktabr	2020- yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
<b>Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln.so'm</b>	34,3	35,0	0,7
<b>Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm</b>	14183,5	16812,6	2629,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 40,2 % ga, hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga oshganlik kuzatildi, shuningdek, kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar 6,6 % ga pasayishi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2106,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 46,8 % ni tashkil etdi.



















Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 33,1 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 10,2 % ni, Zomin tumani 9,9 % ni hamda Do'stlik tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumani (363,4 %), Paxtakor (140,3 %), Yangiobod (141,6 %) va Arnasoy (134,4 %) tumanlarida qayd etildi

## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2106,1	100,0	104,9		207,7	9,9	103,3
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	696,5	33,1	92,9		82,4	3,9	107,5
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	76,4	3,6	134,4		160,1	7,6	363,4
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	69,3	3,3	107,8		52,9	2,5	107,1
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	85,9	4,1	104,5		105,0	5,0	140,3
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	214,4	10,2	91,4		90,9	4,3	93,9
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	198,1	9,4	88,7		66,4	3,1	141,6
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 23,7 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 20,6 % ni, Zomin tumani 10,5 % ni, Paxtakor tumani 7,9 % ni hamda Zarbdor tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri (156,2 %), Paxtakor tumani (130,7 %) hamda Baxmal tumanida (128,2 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)















	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	703,3	100,0	104,9		74,0	10,5	68,4
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	167,0	23,7	156,2		55,2	7,9	85,1
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	22,6	3,2	106,3		27,7	3,9	107,6
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	38,9	5,5	128,2		14,3	2,0	63,5
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	31,1	4,4	104,0		55,3	7,9	130,7
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	27,5	3,9	82,6		26,0	3,7	85,3
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			
	145,0	20,6	106,6		18,7	2,8	100,3

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 37,9 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 13,3 % ni, Zomin tumani 9,5 % ni, Paxtakor tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yangiobod tumani (168,8 %), Zafarobod tumani (522,6 %) hamda Zarbdor tumanida (230,3 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Jizzax viloyati.</b>				<b>Zomin</b>			
	1 402,8	100,0	104,9		133,7	9,5	143,9
	<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>		
	529,5	37,9	82,4		27,2	1,9	230,3
	<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>		
	53,7	3,8	151,3		132,5	9,4	522,6
	<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>		
	30,4	2,2	89,5		38,6	2,8	143,8
	<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>		
	54,8	3,9	104,8		49,6	3,5	152,7
	<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>		
	186,9	13,3	92,9		64,9	4,6	97,8
	<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>		
	53,1	3,8	60,8		47,8	3,4	168,8

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 998,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,2 % ni tashkil etdi.


## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

	Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	4496,4	100,0	104,6		246,9	5,5	101,0
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	1828,5	40,7	101,7		192,2	4,3	106,6
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	115,6	2,6	104,9		302,6	6,7	114,5
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzachoʻl</b>			
	70,4	1,6	106,7		58,8	1,3	102,0
<b>Gʻallaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	127,2	2,8	108,1		352,4	7,8	120,0
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	2 96,3	6,6	107,0		179,8	4,0	105,4
<b>Doʻstlik</b>				<b>Yangiobod</b>			
	659,0	14,7	115,5		66,7	1,4	103,2

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Paxtakor (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 120,0 %), Zafarobod (114,5 %), Do'stlik (115,5 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (101,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.

### Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da







## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,7 % i) hamda Do'stlik (14,7 %), Paxtakor (7,8 %), va Sharof Rashidov (6,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirzacho'l (1,3 %) hamda Yangiobod (1,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (10233,2 ming so'm), Do'stlik (10008,7 ming so'm), Zafarobod (6045,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3228,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1512,4 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 3897,8 ming so'mni, Do'stlik tumanida 3008,6 ming so'mni, Yangiobod tumanida 2351,5 ming so'mni, Zomin tumanida 1260,5 ming so'mni, Zafarobod tumanida 3198,9 ming so'mni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 3228,7	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1512,4		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1498,5	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1260,5
<b>Jizzax viloyati.</b>			<b>Zomin</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 10233,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 3897,8		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2215,9	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 949,7
<b>Jizzax shahar</b>			<b>Zarbdor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2508,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1656,9		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 6045,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 3198,9
<b>Arnasoy</b>			<b>Zafarobod</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 447,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 440,9		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1131,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1017,5
<b>Baxmal</b>			<b>Mirzacho'l</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 736,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 497,6		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 4712,4	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1 404,0
<b>G'allaorol</b>			<b>Paxtakor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1332,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 963,8		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1934,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 977,9
<b>Sharof Rashidov</b>			<b>Forish</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 10008,7	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 3008,6		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2356,5	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 2351,5
<b>Do'stlik</b>			<b>Yangiobod</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2809,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 62,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin (100,0 %), Zafarobod (100,0 %), hamda Mirzacho'l (93,4 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Paxtakor (42,7 %) va Do'stlik (47,4 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (47,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, % da)

Bugungi kunda viloyatda 3395 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 066 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,4 % i) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 677 tasi ( 19,9 %), G'allaorol tumaniga 328 tasi ( 9,7 %), Zomin tumaniga 268 tasi ( 7,9 %), Forish tumaniga 153 tasi (4,5 %), Zarbdor tumaniga 148 tasi ( 4,4 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-oktabr oyida viloyatda 688 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 143 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,8 %) Jizzax shahrida, 81 tasi (12,9 %) Sharof Rashidov tumanida, 80 tasi (12,7 %) G'allaorol tumanida, hamda 44 tasi ( 7,0 %) Do'stlik tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (72) 221-51-13